

**SUN'IY INTELLEKT FOYDALANUVCHI ISTE'MOLCHILAR
HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING USUL VA VOSITALARI**

Rahmatova Dilorom,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi

yo'nalishi magistranti

Email: rahmatovadilorom531@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqola sun'iy intellekt texnologiyalarining foydalanuvchi (iste'molchi) huquqlarini himoya qilishdagi o'rni va dolzarb muammolarini tahlil qiladi. Normativ-huquqiy tahlil, xorijiy tajriba va turli ma'lumotlarga asoslangan holda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda mavjud vosita va usullar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, iste'molchilar huquqlari, ma'lumotlar himoyasi, AI etikasi, huquqiy vositalar.*

Kirish

Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi, ayniqsa sun'iy intellekt texnologiyalarining hayotimizga kirib kelishi bilan iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish masalasi yanada murakkablashmoqda. Bugungi kunda onlayn platformalar, elektron tijorat va avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali millionlab foydalanuvchilar mahsulot va xizmatlardan foydalanmoqda. Shu jarayonda foydalanuvchilar — ya'ni raqamli iste'molchilar — shaxsiy ma'lumotlarining himoyalaniishi, ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish huquqi, shaffoflik va adolatli xizmat olish kabi asosiy huquqlariga ega bo'lishi zarur. Sun'iy intellekt texnologiyalari iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishda katta imkoniyatlar yaratmoqda: avtomatik monitoring, ma'lumotlar tahlili, firibgarlikni aniqlash, foydalanuvchi shikoyatlarini avtomatlashtirilgan tarzda ko'rib chiqish va hatto

SJIF:5.219

oldindan xatarlarni bashorat qilish kabi funksiyalar SI yordamida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, noto'g'ri ishlatilgan SI texnologiyalari diskriminatsiya, noto'g'ri qarorlar, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi kabi xavflarni ham tug'dirishi mumkin.

1. Maqolani tayyorlashda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi:
2. Normativ-huquqiy tahlil – sun'iy intellekt va ma'lumotlar himoyasi bilan bog'liq xalqaro va milliy qonunchilik o'rganildi.
3. Empirik tahlil – sun'iy intellekt asosida ishlovchi platformalarning foydalanuvchilar murojaatlarini qanday qayta ishlayotgani haqidagi ma'lumotlar tahlil qilindi.

Natijalar

Sun'iy intellektdan foydalanuvchi iste'molchilarning huquqlari buzilmoqda. Jumladan, ularning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarining tarqalishi, yolg'on ma'lumotlar tarqatish, javobgarlik va shikoyat qilish mexanizmning noaniqligi, shaffoflik yetishmasligi va shu kabilar. Bularning natijasida sun'iy intellekt foydalanuvchi iste'molchilari moddiy va ma'naviy zarar ko'radi. Shuning uchun, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish zarur. Buning bir nechta usullari va vositalari mavjud. Jumladan, huquqni tan olish, huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish, bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish, shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi, burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish, zararni to'lash, neustoyka undirish, ma'naviy ziyonni qoplash, huquqiy

munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish, davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi.

Huquqni tan olish – iste'molchilarning huquqlarni tan olinishi va ularni amalga oshirish usuli hisoblanadi. Masalan, iste'molchi tovarni alamshtirish, sifatli xizmat olish, zarar ko'rsa tovon undirish kabi huquqlari kiradi.

Huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug'diradigan harakatlarning oldini olish – bu usulda iste'molchi huquqi buzilishidan avvalgi holatiga qaytariladi ya'ni iste'molchi sotib olgan tovari yoki xizmatidan zarar ko'rdi bu holatda iste'molchi Tovar yoki xizmatdan foydalanishdan oldingi holatiga qaytariladi.

Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo'llash – iste'molchi bilan tuzilgan bitim qonunga xilof bo'lmasa, sud bunday bitimni haqiqiy emas deb topishi mumkin. Natijada, tomonlar bitim tuzilganidan oldingi holatga qaytariladi va asossiz olingan mol-mulk qaytariladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 114-moddasiga binoan bitim haqiqiy emas deb topilganda olingan barcha narsalar mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki xizmat aslicha qaytarib berilishi lozim. Agarda qaytarib berishni iloji bo'lmasa, pul bilan to'lanib beriladi.

Burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish - bu usulda iste'molchining huquqi buzilganda, majburiyat bajarilmagan tomon uni aslicha – pul bilan emas, balki bevosita bajarishga majbur qilinadi.

Zararni to'lash - zararni qoplash fuqarolik huquqlarini himoya qilishning universal usullaridan biri sanaladi. Ayni paytda bu usul fuqarolik huquqining kompensatorlik funksiyasi bajarilishini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Iste'molchi tovar, ish yoki xizmatdan foydalanishi natijasida uning sog'lig'iga, mol-mulkiga yoki hayoti uchun zarar bo'ladigan bo'lsa, bu zarar qoplanishi zarur. Ushbu zararni qoplash orqali shaxsning buzilgan huquqi tiklanadi va uning mulkiy manfaatlari ta'minlanadi. Iste'molchilarning barcha faoliyatlari qonun bilan himoyalangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 393-moddasiga ko'ra, sotib oluvchidan tovarni olib qo'yilgan, sotuvchi iste'molchi ko'rgan zararni qoplab berishi zarur. Sotib oluvchi bunday asoslarning mavjudligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan hollar bundan mustasno hisoblanadi. Xalqaro qonunchilik miqyosda ham har bil davlat iste'molchilarning huquqlarini himoya qiladi. Fransiyaning Fuqarolik kodeksining 1631-moddasiga binoan, iste'molchining beparvorligi yoki fors-major holatlari tufayli sotib olingan tovarga zarar yetkazilsa ham sotuvchi zararni qoplashi va to'liq narxni qaytaradi. huquqi buzilgan iste'molchi uni himoya qilish usullarini tanlashda erkin hisoblanadi. Masalan, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 13-moddasi birinchi qismida iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganida, u o'z xohishiga ko'ra quyidagilardan birini talab qilish huquqiga ega bo'ladi: maqbul sifatli tovarga almashtirib berish, tovarni almashtirib, narxini mutanosib ravishda kamaytirish, zararni qoplash kabi huquqlarga ega bo'lishi ta'kidlangan. Masalan, iste'molchi huquqlari buzilgan qat'iy va imperativ tarzda faqat yetkazilgan zararni qoplash talabi belgilanmaydi, balki iste'molchining xohishidan kelib chiqib, uning huquqlarini tiklashning bir nechta varianti taklif etiladi. Iste'molchi o'z xohishidan kelib chiqib, buzilgan huquqni tiklashni qonunchilikda taklif etilgan bir nechta variantlardan birini yoki birgalikda buzilgan huquqning darajasiga mutanosib ravishda tanlashga haqli bo'ladi. Xususan, FKning 434-moddasida iste'molchiga

sifati tegishli darajada bo'lmagan tovar sotilganida uning buzilgan huquqini tiklash uchun beshta variant (usul, yo'l) taklif etiladi va sotib oluvchi-iste'molchi ulardan o'zi istaganini tanlashi mumkin. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jabrlanuvchi shaxs tovarning nuqsonlari oqibatida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida da'vo qo'zg'atganida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq, u havola qilayotgan manbani ko'rsatishga majbur hisoblanmaydi. Angliyada esa da'vogar o'z huquqini buzish asosini, ya'ni shartnomani bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatini ko'rsatib berishi zarur.

Neustoyka undirish - shartnomada neustoyka (jarima yoki penya) belgilangansa, tovar yoki xizmat kechikib yetkazib berilgan holatda iste'molchi uni undirish huquqiga ega. Bu shartnoma shartlariga asoslanadi va zarar mavjud bo'lmasa ham qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 436-moddasida sotuvchi majburiyatini bajarmasa, zararni qoplashi va neustoykani to'lashi kerakligi ta'kidlangan.

Ma'naviy ziyonni qoplash - Agar iste'molchining sha'ni, qadr-qimmati yoki ish obro'siga putur yetkazilgan bo'lsa, u holda ma'naviy zarar undirilishi mumkin. Bunday tovonning miqdorini sud belgilaydi. Savdo, xizmat ko'rsatish yoki ish bajarish jarayonida iste'molchi huquqlari buzilganda, moddiy zarar bilan bir qatorda, ma'naviy zarar ham yetkazilishi ehtimoldan xoli emas. Bunday vaziyatda, huquqlari buzilgan iste'molchi o'ziga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun kompensatsiya talab qilish huquqiga ega. Iste'molchilar huquqlari amaldagi qonunlar orqali himoya qilinadi. Bu himoya fuqarolik huquqlarining umumiy tamoyillariga tayanuvchi himoya mexanizmlaridan, shuningdek, iste'molchilar

huquqlarini muhofaza qilishga doir maxsus qonunchilik me'yorlaridan iboratdir. Fuqarolik kodeksining 11-moddasida fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullaridan biri sifatida ma'naviy ziyonni qoplash nazarda tutilgan bo'lsa, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 22-moddasi ma'naviy zarar uchun haq to'lanishi nazarda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-sonli farmoyishiga "O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi"da ma'naviy, moddiy zarar va ziyonlarni hisoblash tartibini joriy etish yo'li bilan fuqarolik qonunchiligining kompensatorlik funksiyasini kuchaytirish vazifasi yuklatilgan.

Huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish - shartnoma shartlari iste'molchining huquqlarini buzsa, u holda iste'molchi sud orqali ushbu munosabatni bekor qilish yoki uni o'zgartirishni talab qilishi mumkin.

Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi – sud muayyan qaror yoki hujjat iste'molchining huquqlarini buzayotganini aniqlasa, u holda bunday hujjatni qo'llamaydi, ya'ni qarorni qabul qilmaydi. Bu orqali iste'molchi o'z huquqini himoya qiladi.

Huquqiy vositalar orqali iste'molchilarning huquqlari himoya qilinadi. Jumladan:

Institutsional (tashkiliy) vositalar iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, agentliklar va sudlarning faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Sud-huquqiy vositasi orqali iste'molchilar o'z huquqlari buzilgan hollarda sud yoki arbitrajga murojat qilgan holda huquqlarini himoya qiladi.

Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy vositalar orqali iste'molchilarning huquqlari jamiyat hayotida himoya qilinishi tushuniladi ya'ni fuqarolik jamiyati mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar, uyushmalar, norasmiy guruhlar, ommaviy harakatlar va jamoatchilik institutlari yig'indisidan iborat.

Iste'molchilar ma'muriy-huquqiy vositalarni qo'llash orqali ham o'z huquqlarini himoya qiladi. Misol uchun, iste'molchilar ko'rgan zararini qonun bilan ya'ni davlat organlari tomonidan chiqarilgan qarorlar orqali ko'rgan zararini jarimalar to'latish orqali amalga oshirishlari mumkin.

O'zini o'zi himoya qilish vositalarida sun'iy intellekt xizmatlaridan foydalanishda shartlarni diqqat bilan o'qish kerak. Shaxsiy ma'lumotlarni nazorat qilish, ruxsat so'ralganda asosli qaror qabul qilish so'ralgan ma'lumot keyinchalik iste'molchiga zarar yetkazmasligiga amin bo'lishi lozim.

Munozara

Sun'iy intellekt iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda ulkan salohiyatga ega bo'lsa-da, bu texnologiyaning to'g'ri ishlashi uchun muayyan xavfsizlik va shaffoflik standartlari ishlab chiqilishi zarur. Bugungi kunda AI algoritmlarining qanday ishlashi ko'pchilik uchun tushunarsizligicha qolmoqda — bu esa foydalanuvchining ongli tanlov qilish huquqiga putur yetkazadi. Bundan tashqari, SI tizimlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish va ularni insoniy ko'rib chiqish imkoniyati har doim ham ta'minlanmaydi.

Shuningdek, algoritmlardagi noinsoniy qarorlar (algorithmic bias) xavfi ham mavjud. Misol uchun, ayrim foydalanuvchilarga kredit yoki xizmat ko'rsatishni rad etish qarori sun'iy intellekt tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar

asosida qabul qilinishi mumkin. O‘zbekiston sharoitida SI texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha dastlabki qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, ularning iste’molchilar huquqlari bilan bog‘liqligi hali to‘liq tartibga solinmagan. Xususan, “Sun’iy intellektidan foydalanishning etik me’yorlari” va “foydalanuvchi roziligi asosida ma’lumotlar tahlili” kabi yo‘nalishlarda huquqiy bo‘shliqlar mavjud.

Xulosa

Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda yangi imkoniyatlar bilan birga, xavflarni ham olib kelmoqda. Maqolada O‘zbekiston qonunchiligi asosida iste’molchilar huquqlarini SI vositalari yordamida qanday himoya qilish mumkinligi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari yoritilgan. Sun’iy intellekt orqali firibgarlikni aniqlash, avtomatik monitoring va shikoyatlarni qayta ishlash imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi, algoritmik noaniqlik va shaffoflik yetishmasligi kabi muammolar ham dolzarbdir. Shuning uchun, AI texnologiyalarini huquqiy, etik va texnik standartlar asosida tartibga solish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasi // Qonunchilik bazasi.

2.

<https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGIARTI000006441769/1804-03-21/>.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni // Qonunchilik bazasi



-
4. Закон РФ «О защите прав потребителей» // СЗ РФ. 1996. – № 3. Ст. 140.
 5. Возмещение вреда, причиненного недостатками товаров, по праву Англии и России // <http://elibrary.ru>.
 6. <https://lex.uz/uz/docs/-4272621>.